XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-may VII-8-53-2-42-K/25 Buxoro shahar

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosi, hamda daromad va xarajatlarga tegishli tartibda kiritilgan o'zgartirishlar to'grisida

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-28 va 126-147-148-moddalariga asosan Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak daromadlari 63,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, mahalliy budjetdan 59,6 mlrd. so'm miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan 29,04 mlrd. so'mi yoki 49,1 foizi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirildi. Buxoro shahar mahalliy budjetining parametrlariga 2025-yil 1chorakda daromad va xarajatlarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisobotlari axborot uchun qabul qilinsin.

Bundan tashqari, respublika budjetidan maqsadli tadbirlarga qo'shimcha ajratilgan mablag'lar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar hamda viloyat mahalliy budjeti parametrlari doirasida kiritilgan o'zgartirishlar hisobiga belgilangan tadbirlar o'z vaqtida moliyalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-28 va 126-147-148-moddalariga asosan shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosi hamda daromad va xarajatlarga tegishli tartibda kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisobotlari muhokama qilib, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1 Buxoro shahar hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo'limining Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil yil 1-chorak budjet ijrosi hamda daromad va xarajatlarga tegishli tartibda kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisoboti 1-2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Buxoro shahar hokimining birinchi o'rinbosari (X.Yaxyoyev), shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida shahar mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlarni kiritish choralarini ko'rsin.

3. Buxoro shahar hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda Buxoro shahar davlat soliq inspeksiyasi (A.Gafurov)ga:

shahar hokimligi bilan birgalikda daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. Bunda, prognoz rejani har bir soliq turi kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ma`murov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi Q.Tursunov

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 17-maydagi
VII-8-53-2-42-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-chorak daromadlari ijrosi to'g'risida ma'lumot

ming.so'm

№	Daromad turlari	Buxoro shahri			
		Tas.reja	Aniq.reja	O‘zg.	Ijro
	JAMI	**48 845 530**	**61 760 380**	**12 914 850**	**63 123 920**
1	Foyda solig‘i	0	0	0	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	13 352 000	13 112 000	-240 000	13 112 834
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0	5 824 000	5 824 000	4 547 002
-	Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i	0	5 824 000	5 824 000	4 547 002
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 386 000	3 474 000	88 000	3 591 522
5	Aksiz solig‘i jami	0	0	0	0
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0	0	0	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 494 500	7 994 500	1 500 000	7 484 683

7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 422 000	13 752 000	3 330 000	13 909 189
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 170 030	11 117 880	947 850	9 472 133
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 914 000	5 379 000	1 465 000	5 418 069
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	103 000	103 000	0	-1 675
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	606 000	606 000	0	1 033 295
-	qishloq xo‘jalagi tashkilotlari (40%)	0	0	0	0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0	0	0	17 845
13	Davlat boji	0	0	0	0
14	Yig‘imlar	0	0	0	0
15	Jarimalar	0	0	0	1 996 500
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	398 000	398 000	0	416 604
17	Boshqalar	0	0	0	2 125 918

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 17-maydagi
VII-8-53-2-42-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-chorak xarajatlari ijrosi to'g'risida ma'lumot

ming.so'm

№	Ko'rsatkichlar nomi	Buxoro shahar	
		Aniqlangan reja	Bajarilishi
	Buxoro shahar xarajatlar - jami	**65 811 049**	**59 619 644**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**32 206 970**	**29 040 138**
	shu jumladan:		
1.1	**Maorif**	**21 494 840**	**18 998 822**
	- maktabgacha ta'lim	11 754 358	10 008 207
	- umumiy ta'lim	9 740 482	8 990 615
1.2	**Sog'liqni saqlash jami**	**378 000**	**378 000**
	Sog'liqni saqlash	378 000	378 000
1.3	**Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari**	**10 180 814**	**9 537 653**
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	8 485 898	7 946 241
	- sport	1 694 916	1 591 412
1.4	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	46 200	34 650
1.5	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	107 116	91 013
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**17 510 742**	**15 060 680**
	shu jumladan:		

2.1	Obodonlashtirish	17 076 069	14 643 243
2.2	Veterinariya qo'mitasi	434 673	417 436
3	**DAVLAT BOSHQARUV IDORALARI**	**7 252 859**	**7 032 785**
4.	**FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**747 500**	**312 148**
5.	**ZAXIRA JAMG'ARMASI**	**530 353**	**274 292**
6.	**FUQAROLAR TASHABBUSI JAMG'ARMASI MABLAG'LARI**	**6 516 886**	**6 516 886**
7.	**BOSHQA XARAJATLAR**	**1 045 739**	**1 382 716**
	shu jumladan:		
7.1	Boshqa xarajatlar	749 952	1 086 929
7.2	Advakatlar xizmati	295 787	295 787